

SHARQ VA G'ARB ADABIYOTIDA MUHABBAT TASVIRI: QIYOSIY TAHLIL

Mohizarbegim Ergasheva

TDSHU, Arabshunoslik oliy maktabi

2-bosqich arab-ingliz guruhi talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada Sharq va G'arb adabiyotida muhabbat mavzusining tasviri taqqosiy tahlil qilinadi. Alisher Navoiy, Hofiz kabi Sharq adiblarining asarlarida muhabbat ilohiy va ruhiy kamolot vositasi sifatida ifodalangan bo'lsa, Shekspir va Jeyn Ostin kabi G'arb yozuvchilarida u insoniy hissiyotlar, hayotiy tanlov va ijtimoiy to'siqlar bilan bog'lanadi. Maqolada ikki adabiy an'anadagi yondashuvlarning o'xshash va farqli jihatlari tahlil qilinib, zamonaviy adabiyotda bu yondashuvlarning uyg'unlashuvi haqida xulosa beriladi.

Kalit so'zlar: Sharq adabiyoti, G'arb adabiyoti, muhabbat tasviri, Alisher Navoiy, Shekspir, taqqosiy tahlil, ma'naviy muhabbat, realistik sevgi, adabiy yondashuvlar, estetik qarashlar.

Abstract: This article provides a comparative analysis of the depiction of the theme of love in Eastern and Western literature. While in the works of Eastern writers such as Alisher Navoi and Hafez, love is expressed as a means of divine and spiritual perfection, in Western writers such as Shakespeare and Jane Austen it is associated with human emotions, life choices, and social obstacles. The article analyzes the similarities and differences of the approaches in the two literary traditions and draws conclusions about the harmonization of these approaches in modern literature.

Keywords: Eastern literature, Western literature, depiction of love, Alisher Navoi, Shakespeare, comparative analysis, spiritual love, realistic love, literary approaches, aesthetic views.

Adabiyot inson qalbining eng nozik tuygʻularini ifoda etadigan sohadir. Har bir davrda, har bir xalq ijodida muhabbat mavzusi markaziy oʻrin egallagan. Ayniqsa, Sharq va Gʻarb adabiyotlarida bu mavzuga boʻlgan yondashuvlar oʻziga xoslik va boylik bilan ajralib turadi. Ushbu maqolada ikki adabiy maktabda muhabbatning qanday tasvirlangani taqqosiy tarzda tahlil qilinadi.

Sharq adabiyotida muhabbat – bu nafaqat ikki inson orasidagi tuygʻu, balki ruhiy yuksalish, ilohiy haqiqatga yetishish vositasi sifatida talqin etiladi. Bu adabiyotda sevgi koʻproq ichki dunyo bilan bogʻliq boʻlib, sevuvchi inson muhabbat orqali oʻzini anglaydi, kamolot sari intiladi. Alisher Navoiyning “Layli va Majnun” dostoni bu borada eng yorqin namunadir. Majnun sevgisida shu darajaga yetadiki, u oʻz “men”ini unutadi, Layli orqali ilohiy haqiqatni topadi. Majnunning sevgi yoʻlidagi azob-uqubatlari, hijroni, sarguzashtlari nafaqat insoniy muhabbat, balki Allohga yetaklovchi ruhiy makom sifatida talqin etiladi. “Sen yoʻqliging yoʻqliq, borligʻing borlik”, degan misralar sevgi orqali borliqni anglashni koʻrsatadi. Xuddi shuningdek, Hofiz Sheroziy gʻazallarida ham sevgi – bu koʻngil ishi, lekin koʻngil ilohiy nur bilan yoʻgʻrilgan maskandir. Uning nazarida yor obrazi koʻpincha Yaratganning timsoli sifatida namoyon boʻladi. Uning har bir gʻazalida zohiriy muhabbat ortida botiniy, yaʼni tasavvufiy maʼno yashiringan. Saʼdiy Sheroziy asarlarida esa muhabbat faqatgina ilohiylikka emas, balki insonlar oʻrtasidagi axloqiy, maʼnaviy munosabatlarga bogʻlangan. “Guliston” va “Boʻston” asarlarida mehr-muhabbat insonni komillikka olib boruvchi kuch, jamiyatni obod qiluvchi tamoyil sifatida koʻriladi. Sharq adabiy merosida muhabbat tushunchasi koʻpincha metaforik shakllarda beriladi: gul va bulbul, yor va oshiq, sahro va Majnun obrazlari orqali inson qalbining nozik kechinmalari ifodalanadi. Bu timsollar muhabbatning nafaqat tashqi, balki ichki mohiyatini ochib beradi.

Muhabbat – Sharq adabiyotida visol emas, hijron vositasida yetiladigan, sabr bilan pishib yetiladigan tuygʻudir. Bu adabiyotning estetikasi sabr, tavozu, vafodorlik, sadoqat kabi fazilatlarni ulugʻlaydi. Shuningdek, Sharq adabiyotida ayol obrazi ideal goʻzallik, poklik, ruhiy yuksaklik timsoli sifatida tasvirlanadi. Bu yondashuvda ayol obraziga boʻlgan hurmat va sadoqat kuchli boʻlib, muhabbat uning atrofida badiiy ifodasini topadi.

Bu adabiyotda muhabbat – insonni o‘z nafsidan yengib, Allohga yetaklovchi kuchdir. Sharqona muhabbatda jismdan ko‘ra ruh ustun turadi.

G‘arb adabiyotida esa muhabbat tasviri ko‘proq individualizm va insoniy ehtiroslar markazida namoyon bo‘ladi. Bu adabiyotda sevgi – shaxsiy tanlov, ichki inqilob, ba‘zan esa fojiaga olib boruvchi kuch sifatida tasvirlanadi. Muhabbat insonni baxtli qilishi ham, halokatga yetaklashi ham mumkin – bu qarash G‘arb adabiyotining ko‘plab asarlarida kuzatiladi. Misol uchun, Uilyam Shekspirning “Romeo va Julietta” tragediyasida sevgi ikki yoshning qattiq dushmanlik muhitida porlayotgan, lekin fojiaviy yakun topadigan sof tuyg‘usidir. Bu asarda muhabbat ijtimoiy to‘siqlar, oilaviy ziddiyatlar bilan kurashadi. Romeo va Julietta bir-birlariga bo‘lgan mehrni barcha muammolardan ustun qo‘yadi, ammo ularning muhabbati fojia bilan nihoyasiga yetadi. Bu orqali Shekspir muhabbatning kuchini ham, uni yo‘q qiluvchi kuchlar – nafrat va kamsitishlarni ham yoritadi. Jeyn Ostinning “Andisha va g‘urur” romanida esa sevgi nafaqat hissiyot, balki ongli tanlovdir. Elizabet Bennet va mister Darsi orasidagi munosabatlar ilk bosqichda xurofot, ijtimoiy stereotiplar bilan to‘qnash keladi, ammo vaqt o‘tishi bilan ular bir-birining chinakam insoniy fazilatlarini tushunib, muhabbatga yetishadi. Bu G‘arb adabiyotidagi muhabbatning aql va yurak uyg‘unligida ifodalangan namunalaridandir. Nemis romantizmi vakillaridan Gyote “Yosh Verterning iztiroblari” asarida muhabbatni inson qalbining muqaddas, ammo beqaror hissi sifatida ko‘rsatadi. Verterning Lotta ismli ayolga bo‘lgan muhabbati uni ruhiy iztiroblarga soladi, oxir-oqibatda esa fojiali yakun bilan tugaydi. Bu asarda muhabbat – inson qalbidagi kuchli hissiyotlar bilan bog‘liq, ammo u boshqarib bo‘lmaydigan, hayotni izdan chiqaruvchi kuch sifatida tasvirlanadi. Shuningdek, fransuz adabiyotida, masalan, Viktor Gyugoning “Esmeralda” asarida muhabbat nafaqat go‘zallikni ulug‘laydi, balki ijtimoiy tengsizlik va beayblarga nisbatan zulmga qarshi isyon sifatida ham talqin etiladi. Quasimodo obrazida muhabbat – o‘zini qurbon qilish, chin dildan fidoyilik ifodasidir.

G‘arb adabiyotida ayol obrazi ko‘pincha o‘z fikriga ega, kuchli xarakterli, sevgi uchun kurashuvchi obraz sifatida gavdalanadi. Bu orqali sevgi munosabatlarida tenglik, hurmat va o‘zaro tushunish g‘oyalari ilgari suriladi. Xulosa qilib aytganda, G‘arb

adabiyotida muhabbat – bu harakatlantiruvchi kuch, ichki qarama-qarshiliklar, ijtimoiy bosimlar, insoniy kamchiliklar bilan yuzma-yuz keladigan tuyg‘u sifatida keng qamrovda tasvirlanadi. U har doim ham baxtli yakun topmaydi, ammo insonga o‘zini anglash, o‘shish va o‘zgarish imkonini beradi.

Sharq adabiyotida muhabbat ruhiy yuksalish va sabr vositasi sifatida ko‘rilsa, G‘arb adabiyotida u insoniy qaror, mustaqillik va baxtga erishish yo‘li sifatida tasvirlanadi. Sharqda muhabbat ko‘pincha visolsiz, lekin yuksak ma‘naviy darajada tugasa, G‘arbda u baxtli yoki fojiali yakun bilan real voqelikda nihoyalanadi. Sharq va G‘arb adabiyotida muhabbat tasviri har ikkisi uchun muhim mavzulardan biri bo‘lsa-da, ularning yondashuv uslubi, obrazlar tizimi va estetik mezonlari sezilarli darajada farqlanadi.

Sharq adabiyotida muhabbat ko‘pincha ilohiylik bilan bog‘lanadi. Bu yondashuvda sevgi nafaqat ikki inson orasidagi tuyg‘u, balki tasavvufiy ma‘noda Allohga intilish, ruhiy kamolotga erishish vositasi sifatida tushuniladi. Masalan, Navoiy Majnunni yerdagi yor – Layliga oshiq qilsada, aslida bu muhabbat orqali ilohiy haqiqat sari yetaklaydi. Bu adabiyotda muhabbat vosita, sabr va hijron esa yuksalish yo‘li sifatida talqin qilinadi.

Boshqa tomondan, G‘arb adabiyotida muhabbat ko‘proq insoniy ehtiros, shaxsiy tanlov, ichki ziddiyat markazida tasvirlanadi. Shekspir, Gyote, Jeyn Ostin kabi yozuvchilar muhabbatni ijtimoiy to‘siqlar, ruhiy azoblar, baxtli yoki fojiaiy yakunlar bilan ko‘rsatadi. G‘arb adabiyotida sevgi – bu harakat, kurash, o‘ziga xos dramatik jarayon.

Obrazlar tizimi ham farqli. Sharqda Majnun, Layli, bulbul, gul, yor obrazlari orqali sevgi ramziy, ruhiy, ko‘p ma‘noli kontekstda tasvirlanadi. G‘arbda esa Romeo, Julietta, Verter, Elizabet, Darsi kabi xarakterlar orqali aniq ijtimoiy va psixologik kontekstlarda ko‘rsatiladi. Bu obrazlar orqali inson xarakteri, jamiyat bilan aloqasi chuqur ochib beriladi.

Muhabbatga yondashuvda gender rollari ham farq qiladi: Sharq adabiyotida ayol ko‘proq ma‘naviy poklik, ilohiy go‘zallik timsoli bo‘lsa, G‘arbda u faol, o‘z fikriga ega va sevgi yo‘lida kurashuvchi obraz sifatida ko‘rsatiladi.

Shuningdek, Sharq adabiyotida muhabbat ko‘proq she’riy shaklda – g‘azal, dostonlar vositasida ifodalansa, G‘arb adabiyotida nasr shaklidagi romanlar, tragediyalar orqali chuqur tahlil qilinadi.

Xulosa qilib aytganda, Sharq muhabbatda ruhni, G‘arb esa hissiyot va ongni markazga qo‘yadi. Ikkala adabiyotda ham muhabbat kuchli badiiy hodisa sifatida namoyon bo‘lib, har biri o‘z xalqi va madaniyati ruhiyatini ifodalaydi. Sharqda u ilohiylashtirilgan, G‘arbda esa hayotiyashtirilgan. Bugungi kunda esa zamonaviy adabiyotda bu yondashuvlar sintezi kuzatilmoqda: ruhiylik va real hayot uyg‘un tarzda ifoda topmoqda. Muhabbat mavzusi esa har doim dolzarbligicha qolaveradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Navoiy, A. Xamsa. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1991.
2. Austin, J. Andisha va g‘urur. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2015.
3. Karimov, M. Sharq va G‘arb adabiyoti taqqosiy tahlilda. – Toshkent: Fan, 2018.
4. G‘anieva, N. Adabiyot nazariyasi. – Toshkent: O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2004.
5. Jalolov, M. Adabiyotshunoslikka kirish. – Toshkent: O‘zbekiston, 2013.